

DURAGAY KO'CHATZORLARIDA O'TKAZILGAN TAJRIBALARDA G'O'ZA NAVLARINING CHATISHISH QOBILIYATI TAHLILI

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti tayanch doktoranti:

Xakimov Shaxbozbek Shavkatbek o'g'li

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi:

Odashev Muhammadusmon Ulug'bek o'g'li

2024 yilda duragaylash ko'chatzorida g'o'zaning tola chiqimi va sifati yuqori navlar (Andijon-35, Andijon-37, SP-203, SP-204) bilan chigit moydorligi yuqori navlar (Namangan-77, C8290, C-8295, C-8296) orasida topkross usulida 16 kombinatsiyada chatishtirish ishlari amalga oshirildi (1-jadval).

1-jadval

2024 yilda o'tkazilgan chatishtirish kombinatsiyalari, F₀

№	Chatishtirish kombinatsiyalari		Chatishtirishlar soni, dona	Chatishgan duragaylar soni, dona	Kombinatsiyalanish qobiliyati, %
	♀	♂			
1	Andijon-35	Namangan-77	100	32	32
2	Andijon-37	Namangan-77	100	34	34
3	SP-203	Namangan-77	100	38	38
4	SP-204	Namangan-77	100	28	28
5	Andijon-35	C-8290	100	36	36
6	Andijon-37	C-8290	100	32	32
7	SP-203	C-8290	100	30	30
8	SP-204	C-8290	100	22	22
9	Andijon-35	C-8295	100	20	20
10	Andijon-37	C-8295	100	66	66
11	SP-203	C-8295	100	44	44
12	SP-204	C-8295	100	38	38

13	Andijon-35	C-8296	100	20	20
14	Andijon-37	C-8296	100	18	18
15	SP-203	C-8296	100	46	46
16	SP-204	C-8296	100	30	30

Olingan kombinatsiyalar ichida eng yuqori chatishish qobiliyatlari Andijon-37 x C-8296 (66%) bo'lishi, qolgan kombinatsiyalarda esa 18 % dan 66 % gacha bo'lganligi hisoblandi.

F_5 duragay avlodlarining o'suv davri fazalarining davomiyligi

Ekilgan chigitlarni unib chiqqandan g'o'za nixollari to'liq vegetatsion jarayonlarni o'tab, yangi chigitlar hosil qilgunga qadar ma'lum rivojlanish fazalarini o'taydi. G'o'za rivojlanish jarayonida beshta asosiy fazani o'taydi: unib chiqish, chinbarg chiqish, shonalash, gullash fazasi, pishish. Bu fazalar o'simlikni bir asosiy fazadan ikkinchi asosiy fazaga o'tishiga hozirlaydi.

Unib chiqish bu odatda nav xususiyatiga bog'liq bo'lmasdan, tuproq namligi, havo harorati, chigitning unuvchanligi kabi bir qator omillarga bog'liq bo'ladi.

Tadqiqotlarimizda F_5 ((Andijon-36 x Omad) (Andijon-35 x Ibrat) (C-8290 x Namangan 77) (SP-204 x Andijon-37)) duragay avlodlarining o'suv davri fazalarining davomiyligini o'rganish bo'yicha kuzatuvlar olib borildi.

Bizning tajribamizda ham chigitlar 8-10 kun oralig'ida, ya'ni Andijon-36 g'o'za navi va F_5 duragay avlodlaridan F_5 Andijon-36 x Omad duragay avlodlari chigitlari 8 kunda unib chiqib, qolgan duragay avlodlari nisbatan ertaroq unib chiqdi. F_5 Andijon-35 x Ibrat duragay avlod (9 kun) esa Andijon-36 naviga nisbatan 1 kunga, F_5 (C-8290 x Namangan 77) (SP-204 x Andijon-37) duragay avlodlari (10 kun) 2 kunga kechroq unib chiqqani kuzatuvlar natijasida aniqladik. Unib chiqishni hisobga olish hisoblanadigan qatordagi birinchi maysa paydo bo'lganidan boshlanib, har kuni davom ettirildi. Qatordagi uyalar soni sanab chiqildi. Qatordagi maysali uyalar umumiy uylarning 50% ni tashkil etganda kuzatildi.

G'o'zalar shonalash fazasiga kirishini hisoblashda ham qatordagi o'simliklar soni hisoblandi. Hisoblashlar qatordagi bironta o'simlik shonalashidan boshlanib, shu hisoblangan o'simliklarning 50% i shonalagandan keyin hisoblandi. Bunda Andijon-36 navi (34 kun) ga nisbatan F_5 Andijon-36 x Omad duragay avlod (29 kun) lari 5 kun, F_5 Andijon-35 x Ibrat duragay avlodi (30 kun) 4 kun, F_5 C-8290 x Namangan 77 duragay avlodi (31 kun) 3 kun, F_5 SP-204 x Andijon-37 duragay avlod (31 kun) esa 3 kun erta shonalaganini kuzatdik.

Tajribamizda gullash davomiyligini kuzatganimizda (F_5) duragay avlodlarida 54-57 kunni tashkil etgani holda, Andijon-36 naviga qaraganda F_5 Andijon-35 x Omad

duragay avlodi 5 kunga ertaroq gullab, tezpisharlik belgisini namoyon qildi. Qolgan duragay avlodlari ham bu fazaga ertaroq o'tdi. Jumladan, nazorat navga nisbatan F_5 Andijon-35 x Ibrat duragay avlodi 4 kunga, F_5 C-8290 x Namangan 77 duragay avlodi 3 kunga, F_5 SP-204 x Andijon-37 duragay avlodi 2 kunga ertaroq muddatlarda gullash fazasiga o'tganligi kuzatildi.

Hosil yetilishini hisobga olish ham qatordagi dastlabki o'simlik yetilgan kundan boshlanib, qatordagi 50% o'simliklarning shu fazaga kirgan kuni kuzatildi. Hosilning yetilishi Andijon-36 navida 121 kunni tashkil qilgan bo'lsa, F_5 duragay avlodlarida Andijon-36 naviga nisbatan 6-9 kun ertaroq pishib yetilgani, ya'ni F_5 SP-204 x Andijon-37 duragay avlodlari 9 kunga, F_5 Andijon-35 x Omad duragay avlodi 8 kunga, F_5 Andijon-35 x Ibrat duragay avlodi 7 kunga, F_5 C-8290 x Namangan 77 duragay avlodi esa 6 kunga tezlashganini kuzatuvlar natijasida ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibrogimov P., O'rozov B., Begimqulov B.. Tola hosildorligini ta'minlovchi belgilar orasidagi korrelyatsion bog'liqliklar // "G'o'za seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotekhnologiyalarining dolzarb muammolari hamda uni rivojlantirish istiqbollari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallar to'plami. Toshkent, 2023. 65-68 b.
2. Namozov Sh., Siddiqov A. Genetik jihatdan kelib chiqishi turlicha bo'lgan g'o'za navlarini chatishtirishda asosiy xo'jalik belgilarining irsiylanishi // O'zG'SUITning ilmiy asarlar to'plami. Toshkent, 2022. 143-145 betlar.